SHOIR QALB ME'MORI

Mulkamalov Sobir
"TIQXMMI" MTUning
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
3-bosqich talabasi
Tel.+99899174 4055
https://doi.org/10.5281/zenodo.6573351

Annotatsiya: Har bir inson borki yoshligida she'r yozib muhabbat kuyida oq qog'ozga nimaarnidur qoralagan, ammo shunday insonlar borki oilasi, vatani va yoriga bo'lgan muhabbatini, yuragidagi dardini qog'ozga joylay oladi shunday insonlardan biri haqida.
Kalit so`zlar: "Vatan mehri", me'mor, tarjimon, ijodkor, ehtirosli tuyg'ular.

Me'mor turli hil naqshlar, g'ishtlardan turli sanat asarlari yaratsa shoir, Abdulla Oripov haqida so'z ketganda o'zbekning tanti va jaydari farzandi ko'z oldimizda gavdalanadi. Katta shoir hamisha o'z vaqtida maydonga keladi, u – hamisha tarixiy. Zotan, shoir o'z xalqining ovozi, uning orzu-umidlari va inson qalbi iztiroblarining ifodachisidir.hisoblanadi.

A.Oripov "vatan mehri" she'rida o'z muhabbatini shunaday tariflaydiki vatandan yiroqlashdimi uni qalbdan tezda sog'inishi , yuragi, vujuda har soniyada u tomonga talpinishishini ifoda etadi.

Vatan mehri

Xastalikka yo'liqdim Vatanimdan yiroqda,
Vayron bo'ldi ming karra shundoq ham vayron ko'nglim.
Dengizu tog'lar osha, goh yayov, goh uchoqda
Meni ko'rgani kelding, Bibisora, jon singlim.
Ellik yil ayro tushgan ikki jigarband misol
Aka-singil yig'lashdik, yelkalarga qo'yib bosh.
Shu lahza onam ruhi charx urardi ehtimol,
Balki otam arvohi tilardi bizga bardosh.
Noshukurlik yomondir, yashadim-ku harqalay,
Qayga borsam, muxlislar bizniki deb atashdi.
Biroq o'tgan yillarning fe'lin ham aytib o'tay:
Avvalo qo'rqitdilar, so'ngra esa talashdi.

Haqiqiy yirik iste'dod egasi professional tarjimonlikni emas, original ijodni tanlaydi. Nasr – tamoman o'zga hodisa. Uni har holda didi yuksak, ikki tilni yaxshi biladigan tajribali qalamkash asliyatga yaqin tarjima qilishi mumkin. Shu sababdan g'arbda rus adabiyotining eng yorqin yulduzi A. Pushkin ijodi I.

Turgenev, L. Tolstoy, F. Dostoyevskiy, A. Chexov va boshqa rus prozaiklari ijodi kabi mashhur emas. Butun jahon adabiyotida ahvol bir xil. She'riyatning milliy qobiqdan chiqishi juda qiyin. 80-yillar boshida Abdulla Oripov oʻkinch-la xitob qilgandi:

Bir vaqtlar ilhomning oʻtli tigʻida
Falakni kuylardi mening ham sozim.
Lekin ikki daryo oraligʻida,
Qolib ketdi mening oʻsha ovozim.

Aslida she'rning mazmuni keltirilgan xitobga nisbatan ancha keng va teran. U ovozi ikki daryo oraligʻida qolib ketganidan, jahonga mashhur boʻlolmaganidan afsuslanayotgani yoʻq, balki koʻproq uning insonparvarlik, insof, vijdon, halollik toʻgʻrisidagi chaqiriqlarini, badiiy gʻoyalarini zamondoshlar eshitmayotganidan afsuslanmoqda. Unda shoir oʻzini, hamkasblarini oddiy insonning gʻam-tashvishlarini, hasratlarini unutmaslikka, tabiatga, hayotga ochiq nigoh bilan boqishga undaydi.

Bu she'rni Abdulla Oripov 2014-yida yozgan bo'lib singlisi Bibisoraga ataydi. Kuchli ehtirosli tuygʻular ularda oʻzining yuksak talqinini topib boradi. Bu, bora-bora teran fikr bilan yuksak badiiylikning omuxtasiga aylanib, shoirning ijodiy kamolotga erishganidan darak beradi.

Kuchli ehtirosli tuygʻular ularda oʻzining yuksak talqinini topib boradi. Bu, bora-bora teran fikr bilan yuksak badiiylikning omuxtasiga aylanib, shoirning ijodiy kamolotga erishganidan darak beradi.

Bunga Abdulla Oripovning "Saylanma" (1996) toʻplamini oʻqib amin boʻlishimiz mumkin. Ayniqsa, istiqlol gʻoyasi, el-yurt mustaqilligi, ona Vatanni ozod va obod koʻrish istagi satrdan-satrga parvarish topib, ajib bir porloqlik hosil qiladi. Shoirning "Men nechun sevaman Oʻzbekistonni", "Oʻzbekistonda kuz", "Kuz" kabi 60-yillarda yozilgan she'rlaridayoq istiqlol nurlari jilva qilgandek boʻladi. Xullas, Vatan va xalqqa mehr-muhabbat, tabiatni sevish, ardoqlash, imonli, vijdonli insonlarga madhiyalar oʻqish, goh yigʻlab, goh quvonib kuylash shoir tuygʻulari ummonini tashkil etadi. Abdulla Oripov ijodining keyingi bosqichi yana ham tuygʻularga boy, fayzli va serbarakadir. Jumladan, "Haj daftari" (1992) turkumiga kirgan she'rlarida endi shoir ma'naviyatimiz manbalarini kashf etish yoʻlidan boradi. Qur'oni Karim, Hadisi shariflardan zamonaviy ma'nolar izlaydi va topadi. U dostonnavis va dramaturg sifatida ham ma'lum va mashhurdir. Xususan, "Jannatga yoʻl" dostoni va "Sohibqiron" (1996) she'riy dramasi shoirga katta shuhrat keltirgan asarlardir.

Abdulla Oripov iste'dodli tarjimon sifatida Dantening "Ilohiy komediya" asarini oʻzbek tiliga yuksak mahorat bilan oʻgirgan. Nekrasov, L. Ukrainka,

Shevchenko, R. Hamzatov, Q. Quliyev asarlarini ham ona tiliga tarjima qilgan. O‘zbek xalqining milliy tiklanishi, hurfikrlilik va mustaqillik uchun kurashida Abdulla Oripov she’riyati katta o‘rin tutadi.

O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotining laureati, Kaliforniya (AQSH) Fan, Ta’lim, Sanoat va San’at xalqaro akademiyasining haqiqiy a’zosidir. Mustaqilligimizning yetti yilligida unga birinchilardan bo‘lib “O‘zbekiston Qahramoni” degan yuksak unvon berildi. Abdulla Oripov 2016 yil 5 noyabrda 75 yoshida vafot etdi.

Axborot kutubxona markazi tomonidan O‘zbekiston xalq shoiri, O‘zbekiston Qahramoni, jamoat arbobi Abdulla Oripov (1941-2016) tavalludining 80 yilligi munosabati bilan “She’riyatga baxshida umr” nomli
bibliografik qo‘llanma tayyorlandi. Ushbu tavsiyaviy ro‘yxatdan o‘qituvchilar, kutubxonachilar, talabalar va Abdulla Oripov hayoti bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi foydalanishlari mumkin.

Abdulla Oripov hayoti va ijodi xalqimizning so‘nggi 60 yilda bosib o‘tgan yo‘lini aniq-tiniq aks ettiradi. XX asrning ikkinchi yarmida biror shoir, san’atkor bu yo‘lni Abdulla Oripovdek badiiy kuch-qudrat, his-hayajon bilan ko‘rsata olgan emas. Chunki u noyob daho iste’dodiga mos mas’uliyat tuyg‘usiga ega edi. Mahorat bobida, so‘z jozibasi va obrazliligidan foydalana olishda unga zamondoshlari orasida teng turadigan shoirlar bor. Ammo tarixiy davr xususiyatlarini, ziddiyatlarini, ona Vatan taqdirini, xalqning dardini, g‘am-tashvishlariyu orzu-umidlarini uningdek teran idrok etadigan, qalbining har bir hujayrasidan o‘tkazadigani yo‘q. Zamondosh ijodkorlar orasida birinchi bo‘lib Vatan va xalqning og‘riqli dardini qalamga olgani, hasrat chekib, ehtirosli kuylagani, millat qadr-qimmati, sha’ni uchun kurashgani shundan.

Xulosa. Abdulla Oripov haqida so‘z ketganda o‘zbekning tanti va jaydari farzandi ko‘z oldimizda gavdalanadi. Katta shoir hamisha o‘z vaqtida maydonga keladi, u – hamisha tarixiy. Zotan, shoir o‘z xalqining ovozi, uning orzu-umidlari va inson qalbi iztiroblarining ifodachisidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahim Erkayev. Abdulla Oripov fenomeni maqolasi - «Sharq yulduzi» jurnali, 2018 yil, 3-4-5-sonlar.
2. A.Oripov she’ri 2014-yil
3. https://xabar.uz/uz/talim/abdulla-oripov-haqida-soz-ketganda
4. https://kun.uz/62972894